



TURKISTON AVTONOM SOVET SOTSIALISTIK RESPUBLIKASINING IQTISODIY TARIXI TARIXSHUNOSLIGI

Meliboyev A.A.

Samarqand transport texnikumi

Yoshlar bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari

meliboyevako1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14830988>

Annotatsiya: ushbu tezisdagi Turkiston ASSRda 1918-1924-yillar oralig'ida yuz bergan iqtisodiy jarayonlar tahlili va tarixshunosligiga oid ilmiy asoslangan fikrlar keltirilgan. Mavzu sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan tadqiqotlar asosida yoritib berilgan.

kalit so'zlar: Turkiston ASSR, iqtisodiy o'zgarishlar, natsionalizatsiya siyosati, "harbiy kommunizm", ocharchilik, oziq-ovqat razvyotkasi, pul islohoti, YAIS, tarixshunoslik.

Turkiston o'lkasining 1918-yilda Rossiya federatsiyasi tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi deb e'lon qilinishi o'lkaning markazga qaramligini yanada oshirdi. Bunda iqtisodiy soha qaramligi ham nazarda tutilar edi. Sovet hokimiyati dastlabki yillardayoq o'lka sanoatining yetakchi tarmoqlaridagi 330 dan ortiq sanoat korxonalari natsionalizatsiyalashtirilib o'z egalardan tortib olindi. Davlat tasarrufiga tortib olingan bu obyektlar xalq xo'jaligida muhim rol o'ynar edi. Chunki sanoat korxonalari Birinchi jahon urushiga qadar o'lkadagi yalpi mahsulotning 80 % ni yetkazib berar edi. Natsionalizatsiya siyosati tufayli xususiy yerlar ham davlat ixtiyoriga tortib olindi. Bunga qarshi chiqqan fuqarolarga nisbatan favqulodda iqtisodiy chora tadbirlar belgilanib, "Harbiy kommunizm" siyosati olib borildi. 1918-yildan Turkistondagi yirik, o'rta, mayda sanoat korxonalari, 1919-yildan esa hunarmandchilik korxonalari davlat tasarrufiga o'tkazilish boshlandi. Turkistondan xomashyo zaxiralarining markaziy guberniyalarga tashib ketilishi o'lkadagi iqtisodiy inqirozni yanada oshirdi. Buning ustiga hududdagi 1917-yilda 2,8 mln desyatina bo'lgan ekin maydonlarining hajmi 1923-yilga kelib 1,6 mln desyatina tushib qoldi.

Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy masalalarni o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari sovet davri tarixshunosligida ham bir muncha ko'zga tashlanadi. Ayniqsa tadqiqotchi Aminova R. X. tomonidan 1917-1920 yillarda sovet hukumati tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosat va agrar masalalar atroflicha talqin etildi. Asarda nafaqat Turkiston o'lkasining, balki Buxoro va Xorazmning ham iqtisodiy manzarasi tasvirlanadi. 1921 yilning boshlariga kelib dehqon





xo'jaliklarining soni 1915 yidagiga nisbatan 15 foiz, ularda ishlovchi ishga yaroqli erkaklarning soni 36 foiz qisqardi. Boshqacha aytganda, oilalarni uchdan bir qismidan ko'prog'i boquvchisiz qoldi". Bundan tashqari tadqiqot ishi Turkistondagi ocharchilik jarayonlari, kartochka tizimi, g'alla monopoliyasi kabi o'sha davrning dolzarb iqtisodiy muammolari haqida aniq statistik ma'lumotlar bilan ham boyitilgan.

Turkiston ASSRda "harbiy kommunizm" nomini olgan bolshevikcha iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biri o'lkada xususiy mulkchilikni tugatish hisoblanardi. Bu bo'yicha hukumat tomonidan e'lon qilingan "Yer to'g'risida" dekretga ko'ra barcha yerlar davlatniki edi. Bu qarorga muvofiq tugatilgan xususiy yerlar birlashtirilib davlat tegishli kollektiv xo'jaliklar tuzilar edi. Natsionalizatsiya jarayonlari haqida biz aniqroq ma'lumotlarni sovet davri tadqiqotchilaridan biri Alimov I. ning tadqiqot ishidan olishimiz mumkin: "Turkistonda dastlabki kollektiv xo'jaliklar 1918 yilda asosan boylarning natsionalizatsiya qilingan yerlarida vujudga kela boshlagan. Turkiston Yer ishlari xalq komissarligi qishloq xo'jaligini umumlashtirish bo'limining 1919 yildagi xisobotida ko'rsatilishicha, Toshkent uezdida 150 taga yaqin, Mirzacho'l uezdida 20 ta, Chimkent uezdida 2 ta, Perov uezdida 1 ta, Samarqand uezdida 200 ta, Yettisuv viloyatida 5-6 ta, Farg'ona viloyatida 50 ta kommuna va artel tashkil qilingan. Hammasi bo'lib 35 ming desyatina yerda 40 mingtaga yaqin dehqonlarni birlashtiruvchi 400-420 ta kollektiv xo'jalik mavjud bo'lgan"

Ayni shu davr xo'jaligi haqida M.Haydarovning tadqiqotida shunday ma'lumotlar keltiriladi: "1921-yil Farg'ona vodiysida taxminan 250 ming desyatina yerga ekin, shundan faqat 330 ming desyatina yerga paxta ekilgan edi. (holbuki, 1916 yil 348 525 desyatina yerga faqat amerikacha paxta navi ekilgan edi.) Vodiya mavjud bo'lgan 180 ta paxta tozalash zavodidan (1917 y) loqal birortasi ham ishlamas edi".

1917-1923 yillarda butun Rossiyani qamrab olgan ocharchilik shahar va qishloqlarda ishsizlar, och qolganlar, yetim bolalar sonini ko'payishiga olib keldi. Turkiston o'lkasida ham avj olgan bu jarayonlar natijasida Qo'qon va Marg'ilon uezdlarida yarim million, Farg'ona viloyati bo'yicha 1 million odam ochlikdan vafot etdi. Umumiy aholisi 200 ming bo'lgan Samarqand va Jizzax viloyatlarida 70% aholi ochlikdan vafot etdi.

1920 yil 15 iyundagi 306-sonli qarorga ko'ra, shu yilning 1 iyundan boshlab, Turkiston sovet respublikasining "proletar aholisi"ni sinfiy tabaqalarga ajratgan holda oziq-ovqat bilan ta'minlash tizimi yo'lga qo'yilgan edi: "Birinchii toifaga barcha jismoniy mehnatkash ishchilar, qizil armiya oilalari, nogironlar ,





bir yoshgacha bo'lgan bolalar, mas'ul siyosiy xodimlar, ish vaqtidan tashqari ishlab maosh olmagan malakali ishchilar, universitet talabalari va tinglovchilar kirgan. Ular uchun go'sht 4 funt, non 30 funt, yog' 3,25 funt va hakozi;

Ikkinchi toifaga, o'z mehnatini respublikaga bag'ishlanganlar, barcha sovet ishchilari, 1 va 2-toifadagi ishchilar va xizmatchilar, shu jumladan 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va ijtimoiy ta'minotda bo'lgan shaxslar kiradi. Ular uchun non 22,5 funt, go'sht 2,5 funt, yog' 1,25 funt va hakozi.

Uchinchi toifaga, hamma mehnatkash aholi, o'z mehnatlarini belgilangan tarif bo'yicha bermaganlar va 1 va 2-toifaga kirmagan aholining barchasi kiradi. Ular uchun non 7,5 funt, yog' 1,25 funt va hakozi"

V.A.Semenyuta o'lkada yuzaga kelgan ocharchilik oqibatlarini xaqida quyidagi bir-biridan muhim ma'lumotlarni keltirgan: "...aholi orasida ochlik va epidemiyalar dahshatli tarzda shiddat bilan tarqaldi. Butun bir boshli ovullar qirilib ketishdi. Ko'chmanchi qirg'izlar orasida o'lim kattalar va bolalarda 30 foizgacha, ba'zi joylarda bu ko'rsatkich 75 foizgacha yetdi. Yuzaga kelgan og'ir vaziyatdan chiqib ketish uchun T.Riskulov boshchiligida favqulodda choralar ko'rildi. Ocharchilikni bartaraf qilish uchun favqulodda komissiya tuzildi. Kartochka muhim oziq-ovqat mahsuloti bo'lib o'sha davr uchun zarur bo'lganligi, favqulotda muhim tadbir edi. Boshqa oziq-ovqat mahsulotlarida ham taqchilik sezilardi. Jumladan paxta yog'i ishlab chiqarish 1917-1921 yillarda 45 baravarga kamaydi."

Turkiston ASSRning iqtisodiy jarayonlariga bag'ishlangan maxsus tadqiqotni Sh.Choriyevning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin. Tadqiqotchi Turkiston ASSRdagi iqtisodiy jarayonlarning barcha jabhalari qamrab olgan katta hajmdagi arxiv hujjatlarini turkum va yo'nalishlarga bo'lib tasniflab o'rgandi: "Turkistonda pul islohotlarini amalga oshirish bilan birga o'zgarishlar yuz berdi:

1. Turkiston Respublikasining RSFSR pul tizimiga o'tish talablarini qabul qilinishi;
2. Pul aylanmasining 10 baravarga kamayishi;
3. Turkiston budjet harajatlari kamayishi".

O'lkada joriy qilingan oziq-ovqat razvyotkasi, uning "harbiy kommunizm" siyosati deb nom olishi, joylarda bu siyosat bo'yicha olib borilgan harakatlar haqida I. Haydarovning monografiyasida ham aniq statistikalar va aniq hujjatlar asosi bilan boyitilgan ma'lumotlar keltiriladi: "1918yilga qadar turkistonda davlat mulkiga aylantirilgan sanoat korxonalarini 45% ni tashkil etardi... bolsheviklar tomonidan 1921 yilning 1 yanvarigacha 1175 ta sanoat korxonalarini



(ularning ko'plari mayda korxonalar) natsionalizatsiya qilinib, davlat mulkiga aylantirilgan edi" .

Turkistonda ro'y bergan ocharchilik davri, ayniqsa, mustaqillik yillarida o'lka bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylandi. M. Haydarovning dissertatsiyasida shunday fikrlar keltiriladi. "Turkistonda 1917 yil qishida boshlangan ocharchilik bolshevikcha rejimning qattol siyosati natijasida tobora kuchayib borar edi. 1918-yil 20-noyabrda Turkiston respublikasidagi ocharchilikka qarshi kurash Markaziy komissiyasi tuzildi. Komissiya raisi T. Risqulov o'z tarjimai holida takidlaganiday"...haqiqatan ham ko'chalar, ariqlar va qishloqlarda o'layotgan millionlab kattalar va bolalarni qutqarish kerak edi. O'sha vaqtdagi hokimiyat bunga panja orasidan qarardi (masalan, bir million och kishi hammasi bo'lib 5 000 000 so'm pul ajratildi)" .

Turkiston ASSRda olib borilgan harbiy kommunizm siyosati va uning ayanchli oqibatlari haqida A.Usmonov ham o'zining ilmiy ishida ba'zi faktlarni yozib qoldirgan. Dissertatsiyaning asosiy mavzusi yangi iqtisodiy siyosat bo'lsa ham YAIS ning joriy qilinishiga sabab bo'lgan bu siyosat haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Harbiy kommunizm" siyosati Turkiston Avtonom Respublikasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini tushkunlik holatiga, ayniqsa, agrar sohani halokatli ahvolga olib keldi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914 yilgi darajaga nisbatan 1921 yilda 48,8 foizga qisqardi. Chorva mollari 1920 yilga nisbatan 3 baravardan ziyodroq qisqardi. 1921 yilning boshlariga kelib dehqon xo'jaliklarining soni 1915 yidagiga nisbatan 15 foiz, ularda ishlovchi ishga yaroqli erkaklarning soni 36 foiz qisqardi. Boshqacha aytganda, oilalarni uchdan bir qismidan ko'prog'i boquvchisiz qoldi .

Bunday ijtimoiy inqiroz davrida respublikada kartochka tizimi joriy etilgan. Ushbu tizim oziq-ovqat mahsulotlaridan tejamli foydalanish maqsadida tashkil etilganligi, kartochkadan bolalar, davlat xodimlari, ishchilar va oddiy aholi foydalanishi mumkin bo'lganligi haqida Choriyev o'z tadqiqotida atroflicha ma'lumotlar berib o'tadi. Yig'majildlarda kartochka tizimi bo'yicha saqlangan ma'lumotlarning ko'rsatishicha, undan foydalanuvchilar bir necha kategoriyalarga bo'lingan:

1. I kategoriyaga barcha davlat korxonalarida jismoniy mehnat qiluvchi va hukumatning mas'ul shaxslari;
2. II barcha ishchi-xizmatchilar;
3. III barcha o'lka fuqarolari kirgan.

Mavzuga oid maxsus tadqiqotlarda yangi iqtisodiy siyosat (YaIS), yer-suv islohoti, xo'jalik tashkilotlarining faoliyatlari, ocharchilik va uning oqibatlari





dolzarb masalalar D.E.Mirzaev, N.G.Ozerova, M.X.Kulliev kabilarning tadqiqot ishlarida ham o'z aksini topdi.

A.X.Raxmonqulova, F.Nabiyevlarning ilmiy tadqiqot ishlarida Turkiston ASSRning iqtisodiy hayoti ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tarixi birgalikda yoritib berilgan.

A.Rasulov, A.Mingnorov tadqiqotlarida Turkiston ASSRdagi ocharchilik, ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, oziq-ovqat muammolari, "bolalar muammosi", ularning evakuatsiyasi va boshqa jarayonlarni yoritishda davriy matbuot va xorij adabiyotlariga murojaat qiladilar. Chunonchi, A.Rasulovning Turkiston va Volgabuyi, Uraloldi xalqlari o'rtasidagi munosabatlarga bag'ishlangan monografiyasida 1917-1924 yillarda Turkistonga evakuatsiya qilinganlarga ko'rsatilgan yordamlar to'risida ko'plab muhim statistik ma'lumotlarni ham ko'rsatib o'tadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, ayni mavzuning turli jihatlarida haqida ko'plab tadqiqotlar ishlarini topish mumkin. Ularning aksariyati umumiy sovet davri tarixini qamrab olgan. Turkiston ASSRning iqtisodiy hayotiga oid ilmiy adabiyotlar sanoqli. Shu sababdan tegishli manba va arxiv hujjatlari asosida mavzuga oid tadqiqot yaratish bugungi kun tarixchilari oldidagi dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аминова Р.Х. Аграрная политика советской власти в Узбекистане (1917-1920 гг.) – Т.,1963.
2. Алимов И.А. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигида социалистик ўзгаришлар. – Тошкент.,1972.
3. Абдулхай Г. Ўзбекистон тарихшунослигида Туркистон АССР тарихини ўрганиш муаммолари ва концептуал ўзгаришлар (1918-2018 йиллар) – Т.,2020
4. Ҳайдаров И. Ўзбекистонда иқтисодий кенгашлар фаолияти (1917-1934- йиллар). – Т., 2008.
5. Ҳайдаров М. Туркистонда совет ҳокимиятининг марказлаштириш сиёсати оқибатлари (1917-1924 йиллар). дисс...т.ф.н.– Т., 1998.
6. Усманов А. Янги иқтисодий сиёсат (НЕП) йилларида ўзбек қишлоғидаги ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар (1921-1929 йиллар...дисс.– Андижон, 2013.

